

UO'K/UDC: 821.111-31(73) Yalom.09

IRVING YALOM NASRIDA EKZISTENSIAL MOTIVLAR TAHLILI

Xikmatova Malika Baxtiyorovna

mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: khikmatovamalika07@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22051042>

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik yozuvchi va ekzistensial psixoterapiya nazariyotchisi Irving Yalomning badiiy nasri ekzistensial falsafa nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Yalom o'zining klinik-nazariy asarlarida ilgari surgan to'rtta "tub muammo" — o'lim, ozodlik, yolg'izlik va ma'nosizlik — tushunchalari uning badiiy asarlarida qanday obrazli ifodalanishi masalasi ko'rib chiqiladi. Maqolada "Nitshe yig'lagach", "Spinoza muammosi", "Shopenhauer davosi" romanlari hamda "Sevishdan davolash" hikoyalar to'plami misolida yozuvchining "o'qituvchi roman" (teaching novel) deb atalgan janr tajribasi tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijasida Yalom nasrida falsafiy tafakkur bilan badiiy tasvirning uzviy bog'liqligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Irving Yalom, ekzistensial psixoterapiya, ekzistensial motivlar, o'qituvchi roman, o'lim motivi, yolg'izlik, ozodlik, hayot ma'nosi, amerikalik nasr.

Аннотация. В статье анализируется художественная проза американского писателя и теоретика экзистенциальной психотерапии Ирвина Ялома с точки зрения экзистенциальной философии. Рассматривается, как четыре «предельные данности» существования — смерть, свобода, изоляция и бессмысленность, выдвинутые Яломом в его клиничко-теоретических трудах, — воплощаются в образной системе его художественных произведений. На материале романов «Когда Ницше плакал», «Проблема Спинозы», «Шопенгауэр как лекарство», а также сборника рассказов «Лечение от любви» исследуется авторский опыт создания жанра «обучающего романа» (teaching novel).

Обосновывается неразрывная связь философской мысли и художественного образа в прозе Ялома.

Ключевые слова: Ирвин Ялом, экзистенциальная психотерапия, экзистенциальные мотивы, обучающий роман, мотив смерти, изоляция, свобода, смысл жизни, американская проза.

ANALYSIS OF EXISTENTIAL MOTIFS IN IRVIN YALOM'S PROSE

Annotation. The article examines the fiction of the American writer and existential psychotherapy theorist Irvin Yalom from the standpoint of existential philosophy. It explores how the four "ultimate concerns" of existence — death, freedom, isolation and meaninglessness, first formulated by Yalom in his clinical-theoretical works — are embodied in the imagery of his fiction.

Drawing on the novels *When Nietzsche Wept*, *The Spinoza Problem*, *The Schopenhauer Cure*, and the short-story collection *Love's Executioner*, the article studies the author's experiment with what he himself termed the "teaching novel." It argues for an inseparable link between philosophical thought and artistic image in Yalom's prose.

Key words: *Irvin Yalom, existential psychotherapy, existential motifs, teaching novel, death motif, isolation, freedom, meaning of life, American fiction.*

Kirish

Irving Yalom (tug. 1931) nafaqat amerikalik psixiatr va Stenford universiteti professori, balki XX asr oxiri — XXI asr boshi jahon adabiyotidagi o'ziga xos hodisa — "falsafiy-psixologik roman" janrining yirik namoyandasi sifatida ham tanilgan. Uning ijodi ikki soha — klinik ekzistensial psixoterapiya va badiiy nasr — kesishmasida shakllangan bo'lib, bu holat uning asarlarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishni alohida dolzarb masalaga aylantiradi.

Yozuvchi o'z romanlarini "teaching novel" — ya'ni o'quvchiga falsafiy-psixologik bilim berishga qaratilgan badiiy asar — deb ataydi va bu orqali badiiy adabiyot bilan ilmiy-falsafiy tafakkur o'rtasidagi an'anaviy chegarani ongli ravishda buzadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Yalom ijodi o'zbek va rus adabiyotshunosligida hozircha yetarlicha tadqiq etilmagan, garchi uning asarlari o'nlab tillarga tarjima qilingan va keng kitobxonlar ommasiga ega bo'lsa-da, ularning badiiy tabiati, xususan ekzistensial motivlarning badiiy vositalar orqali ifodalanish tizimi alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Zamonaviy jahon adabiyotshunosligida psixologiya va badiiy ijod chegarasida yuzaga kelayotgan gibrid janrlarni o'rganish, ularning poetik xususiyatlarini aniqlash bugungi kunning muhim ilmiy vazifalaridan biri hisoblanadi, bu esa mazkur tadqiqotning nazariy-metodologik ahamiyatini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi — Irving Yalom nasrida ekzistensial falsafaning to'rtta asosiy toifasi (o'lim, ozodlik, yolg'izlik, ma'nosizlik) qanday badiiy shakllarda namoyon bo'lishini aniqlash va yozuvchining "o'qituvchi roman" janr tajribasining poetik xususiyatlarini yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: 1) Yalomning nazariy-klinik qarashlari bilan badiiy ijodi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash; 2) yozuvchining asosiy romanlari va hikoyalar to'plamida ekzistensial motivlarning badiiy ifodalanish vositalarini tahlil qilish; 3) Yalom nasrini boshqa ekzistensialistik yozuvchilar ijodi bilan tipologik jihatdan qiyoslash; 4) tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Irving Yalomning "Nitsshe yig'lagach" (1992), "Sevishdan davolash" (1989), "Shopenhauer davosi" (2005), "Spinoza muammosi" (2012) kabi badiiy asarlari hamda "Ekzistensial psixoterapiya" (1980) va "Quyoshga tikilish" (2008) nomli nazariy-avtobiografik kitoblari tanlab olindi. Tadqiqotning predmeti — ushbu asarlarda ekzistensial falsafa toifalarining badiiy obrazlar orqali ifodalanish xususiyatlaridir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Irving Yalom ijodi jahon adabiyotshunosligida asosan ikki yo'nalishda o'rganilgan: birinchisi — uning klinik-psixoterapevtik merosini tahlil qiluvchi psixologiya sohasidagi tadqiqotlar, ikkinchisi — uning badiiy asarlarini ommabop madaniyat kontekstida ko'rib chiquvchi sharhlar. Bunday tadqiqotlarda asosiy diqqat asarlarning amaliy-terapevtik ahamiyatiga qaratilgan, ularning badiiy-estetik tabiati esa deyarli chetda qolgan. Rus adabiyotshunosligida ekzistensial falsafa bilan badiiy adabiyot o'rtasidagi bog'liqlik masalasi umumnazariy darajada ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, bevosita Yalom ijodiga qaratilmagan.

O'zbek adabiyotshunosligida esa zamonaviy amerikalik psixologik-falsafiy nasr, xususan Yalom ijodi, deyarli monografik yoki maqola darajasida tadqiq etilmagan — bu holat mazkur ishning ilmiy yangiligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: qiyosiy-tipologik metod, motivlar tahlili metodi, germeneytik-talqin metodi, shuningdek biografik-kontekstual yondashuv. Ushbu metodlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Asosiy qism

1. Yalom ijodiy metodining nazariy asosi

Irving Yalomning "Ekzistensial psixoterapiya" (Existential Psychotherapy, 1980) nomli fundamental asarida ilgari surilgan to'rtta "tub muammo" (ultimate concerns) kontsepsiyasi — o'lim, ozodlik, egzistensial yolg'izlik va ma'nosizlik — nafaqat uning terapevtik amaliyoti, balki butun badiiy ijodining falsafiy tayanch nuqtasini tashkil etadi. Yozuvchi bu g'oyalarni mavhum falsafiy mulohaza tarzida emas, balki konkret inson taqdirleri, tarixiy va zamonaviy qahramonlar orqali badiiy jonlantiradi. Shu bois uning romanlarini shartli ravishda "falsafiy-terapevtik roman" deb atash mumkin: ularda syujet chizig'i ko'pincha real tarixiy shaxs (Nitshe, Spinoza, Shopenhauer) taqdiri bilan o'ylab topilgan terapevtik uchrashuv chizig'ini kesishtirish orqali quriladi. Bu nazariy asosning yana bir muhim jihati shundaki, Yalom o'z falsafiy manbalarini tanlashda tasodifiy yo'l tutmaydi: u har doim egzistensial an'anaga bevosita yoki bilvosita aloqador bo'lgan mutafakkirlarni tanlab oladi, bu esa uning badiiy ijodi falsafiy jihatdan puxta asoslanganligidan dalolat beradi.

2. O'lim motivi

O'lim mavzusi Yalom nasrida markaziy o'rin tutadi. "Nitshe yig'lagach" (When Nietzsche Wept, 1992) romanida bu motiv shifokor Iozef Broyer obrazi orqali ochib beriladi: qahramonning o'rta yosh inqirozi aslida o'limning muqarrarligini ichdan anglash bilan bog'liq egzistensial tajriba sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi bu yerda o'limni faqat biologik hodisa sifatida emas, balki insonning butun hayotiy tanlovlariga ma'no bag'ishlovchi "chegaraviy vaziyat" sifatida talqin qiladi — bu yondashuv M. Haydeggerning "o'limga qarab yashash" (Sein zum Tode) kontsepsiyasi bilan uyg'un keladi, biroq Yalom uni falsafiy traktat emas, balki dialog va ichki kechinma orqali badiiylashtiradi.

"Sevishdan davolash" (Love's Executioner, 1989) to'plamidagi hikoyalarda ham o'lim qo'rquvi turli qahramonlar — saraton bilan og'riq bemorlar, keksalik ostonasidagi insonlar — taqdiri orqali xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bunda muallif klinik amaliyotchi sifatidagi tajribasidan foydalanib, badiiy obrazga psixologik ishonchlilik bag'ishlaydi. Muhim jihati shundaki, Yalom o'lim motivini deyarli hech qachon statik holatda tasvirlamaydi — u har doim qahramonning bu haqiqat bilan "muzokara" jarayonini, ya'ni qo'rquv, inkor, qarshilik va nihoyat qabul qilish bosqichlarini badiiy dinamikada ko'rsatadi.

3. Ozodlik va mas'uliyat motivi

Ekzistensializmning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan ozodlik g'oyasi Yalom talqinida insonning o'z hayotini qurishdagi mas'uliyati bilan uzviy bog'liq holda beriladi. "Spinoza muammosi" (The Spinoza Problem, 2012) romanida XVII asr faylasufi Benedikt Spinozaning erkin tafakkur yo'lidagi tanlovlari XX asr fashist mafkurachisi Alfred Rozenberg taqdiri bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Bu kompozitsion usul orqali yozuvchi ozodlikning ikki yuzini — ijodiy o'z-o'zini anglash yo'lidagi ozodlik va mas'uliyatdan qochish sifatidagi "soxta ozodlik"ni — badiiy qiyoslaydi. Bunday parallel kompozitsiya orqali muallif abstrakt falsafiy tezisni o'quvchiga hissiy-ratsional darajada his qildirishga erishadi, chunki ikki qahramon taqdirining qarama-qarshiligi mavhum g'oyani jonli, ko'rgazmali obrazga aylantiradi.

4. Yolg'izlik (izolyatsiya) motivi

Ekzistensial yolg'izlik — har bir insonning boshqalar bilan qanchalik yaqin bo'lmasin, o'z tajribasini oxirigacha boshqa hech kim bilan to'liq baham ko'ra olmasligi haqidagi g'oya — "Shopenhauer davosi" (The Schopenhauer Cure, 2005) romanining asosiy nervini tashkil etadi.

Guruh terapiyasi ishtirokchilari obrazlari orqali muallif insonning boshqalar bilan haqiqiy aloqa o'rnatish urinishlari va bu urinishlarning tub ekzistensial chegaralarga duch kelishini ko'rsatadi. Romanda tasvirlangan guruh terapiyasi sahnalari o'ziga xos "mikrojamiyat" modeli vazifasini bajaradi: turli xarakterdagi qahramonlarning bir doirada to'qnashuvi orqali yozuvchi yolg'izlikning turli ko'rinishlarini ketma-ket namoyish etadi.

5. Ma'nosizlik va hayot mazmunini izlash motivi

To'rtinchi "tub muammo" — koinotda ob'ektiv ma'no yo'qligi sharoitida inson o'z hayotiga subyektiv ma'no yaratish zaruratidir. Yalom qahramonlari — bo'lsin bu tarixiy faylasuf, bo'lsin zamonaviy bemor — ko'pincha aynan shu muammo bilan to'qnashadi: tashqi muvaffaqiyat (boylik, shuhrat, ilmiy daraja) hayot ma'nosi bo'shlig'ini to'ldira olmasligi haqiqati turli syujet vaziyatlarida qayta-qayta sinaladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Yalom hayot ma'nosi muammosini hech qachon yakuniy, tugal javob bilan yopmaydi — uning qahramonlari ko'pincha ochiq final bilan, ya'ni ma'no izlash jarayonining o'zi davom etayotgan holatda qoldiriladi.

6. "O'qituvchi roman" janr xususiyati

Yalom nasrini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tavsiflashda uning o'zi taklif qilgan "teaching novel" atamasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu janr xususiyati shundan iboratki, badiiy syujet ortida doimo aniq falsafiy yoki psixoterapevtik kontseptsyani o'quvchiga tushuntirish vazifasi yotadi. Natijada matn ikki qatlamli tuzilishga ega bo'ladi: birinchi qatlam — an'anaviy badiiy syujet, ikkinchi qatlam — nazariy-didaktik qatlam. Janr nazariyasi nuqtayi nazaridan "o'qituvchi roman"ni ma'rifiy roman (Bildungsroman) an'anasining zamonaviy modifikatsiyasi sifatida ham ko'rib chiqish mumkin: agar klassik ma'rifiy romanda bosh qahramonning shaxsiy yetuklikka erishish jarayoni tasvirlansa, Yalom variantida bu jarayon aniq nazariy-psixoterapevtik konseptual asosga ega bo'ladi.

7. Yalom nasrini boshqa falsafiy-badiiy an'analar bilan qiyoslash

Yalom ijodini adekvat baholash uchun uni XX asr ekzistensialistik adabiyoti an'anasi kontekstida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. J.-P. Sarrtrning "Ko'ngil aynishi" (La Nausée) yoki A. Kamyuning "Begona" (L'Étranger) romanlarida ekzistensial g'oyalar bevosita

qahramonning ichki monologi va falsafiy mushohadasi orqali beriladi. Yalom esa boshqa yo'ldan boradi: u ko'pincha o'quvchiga tanish tarixiy shaxslarni qahramon sifatida tanlab, ularning hayotidagi haqiqiy yoki taxminiy voqealarga terapevtik-fantastik syujet chizig'ini qo'shadi. Bu farq ikkala yondashuvning ham o'z afzalliklari va cheklovlariga ega ekanini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, rus adabiyotida F. M. Dostoyevskiy ijodi bilan tipologik parallellikni ham qayd etish o'rinlidir: "Jinoyat va jazo" yoki "Aka-uka Karamazovlar"da axloqiy-falsafiy muammolar qahramonlar taqdiri orqali dramatik tarzda hal qilinadi, bu esa Yalomning "badiiy vosita orqali falsafiy tarbiya berish" g'oyasiga ancha yaqin turadi.

8. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati

Ushbu tahlilning ilmiy ahamiyati shundaki, u o'zbek adabiyotshunosligida deyarli o'rganilmagan yangi obyektni — psixoterapiya nazariyasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan zamonaviy amerikalik nasrni — ilmiy muomalaga kiritadi. Amaliy ahamiyati esa quyidagilarda ko'rinadi: birinchidan, tadqiqot natijalari xorijiy adabiyot tarixi va zamonaviy jahon adabiyoti bo'yicha universitet kurslarida foydalanilishi mumkin; ikkinchidan, ular psixologiya va adabiyotshunoslik fanlararo tadqiqotlari uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin; uchinchidan, Yalom asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi istiqbollarini baholashda foydali bo'ladi.

Muhokama va xulosa

Olib borilgan tahlil natijalarini umumlashtirar ekanmiz, Yalom nasrida ekzistensial motivlarning badiiy ifodalanishi bir necha izchil qonuniyatlarga bo'ysunishini ta'kidlash lozim.

Birinchidan, har bir "tub muammo" alohida asarda emas, balki deyarli barcha asarlarda bir-biriga chatishgan holda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, Yalomning badiiy metodi klassik ekzistensialistik adabiyot uslubidan tub farq qiladi: agar klassik ekzistensialistlar falsafani syujetning ichki nafasiga aylantirgan bo'lsa, Yalom uni ko'pincha alohida "o'qitish sahnalari" shaklida beradi — bu xususiyat, bir tomondan, nasrni ommabop va tushunarli qiladi, ikkinchi tomondan, badiiylik va didaktika o'rtasidagi muvozanat masalasini muhokama predmetiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, Irving Yalomning badiiy nasri ekzistensial falsafaning to'rtta asosiy toifasi — o'lim, ozodlik, yolg'izlik va ma'nosizlik — atrofida izchil badiiy tizim sifatida shakllanadi. Yozuvchi bu falsafiy-psixologik g'oyalarni mavhum tarzda emas, balki konkret obrazlar, tarixiy va zamonaviy taqdirlar orqali ifodalab, o'ziga xos "o'qituvchi roman" janrini vujudga keltiradi.

Ushbu janr tabiati, uning boshqa falsafiy-psixologik nasr namunalari bilan qiyosiy tahlili, shuningdek Yalom nasrining o'zbek kitobxoni tomonidan qabul qilinishi masalalari — bularning barchasi keyingi, kengroq tadqiqot doirasida, xususan doktorantura dissertatsiyasi doirasida, chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan istiqbolli yo'nalishlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yalom I. Existential Psychotherapy. — New York: Basic Books, 1980.
2. Yalom I. When Nietzsche Wept. — New York: Basic Books, 1992.

3. Yalom I. Love's Executioner and Other Tales of Psychotherapy. — New York: Basic Books, 1989.
4. Yalom I. The Schopenhauer Cure. — New York: HarperCollins, 2005.
5. Yalom I. The Spinoza Problem. — New York: Basic Books, 2012.
6. Yalom I. Staring at the Sun: Overcoming the Terror of Death. — San Francisco: Jossey-Bass, 2008.
7. Yalom I. The Gift of Therapy. — New York: HarperCollins, 2002.
8. Yalom I. Becoming Myself: A Psychiatrist's Memoir. — New York: Basic Books, 2017.
9. Хайдеггер М. Бытие и время / Пер. с нем. В. В. Бибихина. — М.: Ad Marginem, 1997.
10. Камю А. Миф о Сизифе. Эссе об абсурде // Бунтующий человек. — М.: Политиздат, 1990.
11. Ясперс К. Смысл и назначение истории. — М.: Республика, 1994.
12. Сартр Ж.-П. Тошнота / Пер. с фр. Ю. Я. Яхниной. — М.: АСТ, 2018.
13. Сафрански Р. Шопенгауэр и бурные годы философии / Пер. с нем. — М.: Молодая гвардия, 2014.